



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI, IMLOVIY SAVODXONLIGIK, O'QISH SAVODXONLIGI VA TABIIY FANLARNI INTEGRATSION TARZDA O'QITISHNING AHAMIYATI

Jumanazarova Dilovar G'afurovna

DTPI pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Zumanazarovadilobar@gmail.com

Abdurayimova Sayyora Xidirali qizi

DTPI pedagogika fakulteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

sayyoraabdurayimova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346688>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi boshlang'ich ta'lim tizimida ona tili, imlo savodxonligi, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, samaradorligi va ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Integratsiya o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni anglash, ilmiy tafakkur, nutq madaniyati va ekologik ongning shakllantirishga xizmat qiladi. "Yangi O'zbekiston – Yangi ta'lim" konsepsiyasi, "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" (PQ–60-son, 2022-yil 11-yanvar) hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" asosida boshlang'ich ta'limda fanlararo yondashuvni kuchaytirish, o'quvchida kompleks kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, boshlang'ich ta'lim, ona tili, tabiiy fanlar, o'qish savodxonligi, innovatsiya, STEAM, interfaol metodlar.

Аннотация: В этом тезисе рассматриваются теоретические основы и практическое значение интеграции родного языка, читательской грамотности и естественных наук в начальном образовании. Интеграция способствует развитию научного мышления, языковой культуры и экологического сознания учащихся. Анализируются реформы системы образования Республики Узбекистан, включая концепцию «Новый Узбекистан — новое образование», «Концепцию развития народного образования на 2022–2026 годы» и «Стратегию развития образования до 2030 года».

Ключевые слова: интеграция, начальное образование, родной язык, естественные науки, грамотность, инновации, STEAM.

Annotation: This thesis analyzes the theoretical and practical significance of integrating native language, reading literacy, and natural sciences in primary education. Integration promotes interdisciplinary understanding, scientific thinking, ecological awareness, and language culture among students. The paper refers to national educational reforms, including the "New Uzbekistan – New Education" concept, the "2022–2026 National Education Development Strategy," and the "Education Development Strategy until 2030," which emphasize competency-based and integrated learning in the primary curriculum.

Keywords: integration, primary education, native language, natural sciences, reading literacy, STEAM, modern education, innovation.



Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim tizimi xodimlaridan, ayniqsa umumiy o'rta talim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan zamonaviy yondoshuvlar hamda innovatsiyalardan ijodiy va samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-yanvardagi PQ-60-son qarorida "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni funksional savodxonlik, ijodkorlik va tahliliy fikrlash ruhida o'qitish" ustuvor vazifa etib belgilangan.

2023-yilda ta'lim sohasidagi islohotlar asosida boshlang'ich sinflarda fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, darsliklarni integratsion mazmunda ishlab chiqish va metodik qo'llanmalarni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda."O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun hamda "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi", "2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi", 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi"[1]da va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan

¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.

ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning imloviy savodxonligini rivojlantirish ularning keyingi o'quv faoliyati uchun poydevor hisoblanadi. Shu jihatdan ona tili darslari o'quvchilarning nutq madaniyatini, yozma va og'zaki fikrlashini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri-boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilarda mustahkam savodxonlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, ona tili ta'limi mazmunida imloviy savodxonlikni shakllantirish masalasi o'quvchining umumiy tafakkur darajasi, tilga bo'lgan munosabati va yozma nutq madaniyatining rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Fanlararo integratsiya, ya'ni bir nechta fanlar mazmunini o'zaro uyg'unlashtirib o'qitish orqali o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirish, bilimlarni hayotiy kontekstda o'zlashtirish va chuqurroq tahlil qilishga imkon yaratiladi. Xususan, Integratsion ta'limda quyidagi zamonaviy metodlar yuqori samara beradi: STEAM yondashuvi – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika o'rtasida bog'liqlik yaratish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Konseptual xarita – turli fanlar tushunchalarini vizual shaklda bog'laydi. Aql hujumi, sinkveyn, rol o'ynash, insert metodlari — o'quvchilarni muloqotga,

izlanishga, mustaqil fikrga undaydi. Ilmiy-pedagogik kuzatishlarga ko'ra (N. Zokirova, D. Karimova, 2023), fanlararo integratsiya asosida o'qitilgan o'quvchilarning: nutq rivoji 27% ga, tahliliy fikrlash 30% ga, o'zini ifoda etish ko'nikmalari 25% ga oshgan.

Prezident Mirziyoyevning "2024–2030-yillarda ta'lim tizimini raqamlashtirish strategiyasi" doirasida interfaol texnologiyalarni joriy etish integratsiyalashgan ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tabiiy fanlar mazmunining ona tili darslariga integratsiyasi orqali o'quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlar, balki tabiat hodisalari, ekologik madaniyat hamda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, imloviy savodxonlikni rivojlantirishda faol, mazmunli yondashuvni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida imloviy savodxonlikni rivojlantirishda tabiiy fanlarni integratsiyalash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Integratsion ta'lim — bu turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirib, yagona tizimda o'qitish jarayonidir. L.S. Vygotskiy, D. Dewey, J. Piaget kabi olimlarning nazariyalariga ko'ra, bola bilimni alohida emas, balki hayotiy tajribaga asoslangan, o'zaro bog'liq yo'nalishlarda o'zlashtiradi.

Ona tili, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlar — bu jarayonning asosi bo'lib, o'quvchining nutqiy, mantiqiy, ilmiy tafakkurini birgalikda rivojlantiradi. Mazkur yondashuv nafaqat metodik samaradorlikni ta'minlaydi, balki o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda integratsiyalashgan ta'lim muammosiga boshlang'ich ta'limda ham jiddiy diqqat qaratilayotganligining sababini professorlar R. Mavlonova va N. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" (2009), "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" (2013) nomli o'quv qo'llanmalarida quyidagicha izohlaydilar: "O'quv predmetlari orasidagi integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi, balki predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuv - differentsiya va integratsiya orasidagi munosabatni tushunishga tayanadi... turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish yoki faoliyatning almashinishi emas, balki fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir" [2]. Masalan "Tabiatda suvning ahamiyati yoki 'Hayvonlar dunyosi' mavzular asosida o'tiladigan ona tili darslarida o'quvchilar tabiat haqiagi bilimlarni boyitish bilan birga, to'g'ri yozish; tinish belgilardan foydalanish, so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash malakalarini rivojlantiradilar. Bunday darslarda matn bilan ishlash, diktant, insholar yozish, tahliliy topshiriqlar bajarish orqali o'quvchilarning imloviy savodxonligi mustahkamlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Ona tili, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish — bugungi ta'lim tizimining muhim talabidir. Bu yondashuv: o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi, fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni his etishga o'rgatadi, ekologik va ilmiy tafakkurni shakllantiradi. Integratsiya — bu faqat dars usuli emas, balki o'quvchini hayotiy muammolarni kompleks hal etishga tayyorlovchi zamonaviy pedagogik strategiyadir.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida imloviy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida tabiiy fanni integratsiya qilishning samaradorligi, fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarning nafaqat til qoidalarini mustahkamlash, balki tabiat hodisalari va atrof-muhitga bo'lgan



qiziqishlarini oshirishga ham erishiladi. Tabiathunoslik fanining ona tili darslariga kiritilishi o'quvchilarning fikrlash darajasini kengaytirib, ularni mustaqil va ijodiy faoliyatga rag'batlantiradi. Shuningdek, bu yondashuv imloviy qoidalarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Integratsion yondashuvda tabiiy fanlar orqali o'quvchi atrof-muhitni kuzatadi, tahlil qiladi, bu jarayonda ona tili vositasida o'z fikrini ifodalaydi. Masalan, "Havo va suv" mavzusi tabiiy fanlarda o'rganilganda, o'qish darsida "Suv hayot manbai" kabi matnlar bilan bog'lanadi, o'quvchilar suvning inson hayotidagi o'rnini so'z orqali tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. 'Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi va tarbiya darslarining integratsiyalashuv imkoniyatlari. Gulmira Sodiqova boshlang'ich sinf o'ituvchisi. Boshlang'ich ta'lim gazetasi. 2021-yil, 10-son, 21-bet.
3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o'qitishga tayyorlash. Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil, 3-bet.
4. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va talim prinsiplari Mavlonova.R, Raxmonqulova. N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent Ilm ziyo, 2009.
5. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.